

AMIR TEMURNING BESH YILLIK URUHLARI

Jakbaraliyeva Zarina Sherali qizi

University of Business and Science Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek davlatchilik tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan buyuk bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temurning olib borgan besh yillik urushlari davrida bosib olingan hududlar va uning natijalari, janglarda qo'llagan strategiyalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: To'xtamishxon, Sharafuddin Ali Yazdiy, Besh yillik urush, Muzaffariylar, 7 favj, Gurjiston, Ozarbayjon, Sulton Ahmat Jaloyir, Qora Yusuf, Misr mamluklari.

O'zbek xalqi mustaqillikka erishishi uning milliy o'zini anglashiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Chunki davlat mustaqil bo'lsa ilm-fan ham yuksaladi, ota-bobosi kim bo'lgan, ular jahon hayotidan qanday o'rin olgan, ularning bunyodkorlik ishlarini o'rganish maqsad qilib qo'yiladi. Shu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov 1998-yilda tarixchi olimlar bilan bo'lgan uchrashuvda olimlar oldiga tarixda xalqimiz uchun hayotini bag'ishlagan ota-bobolarimiz tarixini haqqoniy ravishda yozish haqida topshiriq beradi. Chunki bu masalalar haligacha muzokarali mavzu bo'lib qolmoqda.

Amir Temur ko'p yillik hukmronlik davrida kuchli va markazlashgan davlat tuzishga va uni mustahkamlashga tinimsiz harakat qilgan. Amir Temurning faoliyatiga bag'ishlangan fors, arab manbalarida uning Yaqin Sharq mamlakatlari bilan siyosiy-diplomatik aloqalari haqida qisman ma'lumotlar topiladi, lekin XX-XXI asr boshlarida yaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida bu masala haqida qisqacha fikr bildirishgan. Ularni birlashtirib, umumiy xulosani chiqarish, tahlil etish va uni yoritib berish, Amir Temurning Sharq xalqlari tarixida tutgan o'rni va ro'lini belgilash uchun juda muhimdir. Tarixchi

Mahmudov Mansurjonning “Harbiy san’at tarixi” asarida shunday yoziladi: “Sohibqiron harbiy yurishni boshlashdan oldin dushmanning qurolli kuchlari, mudofaa inshootlari u yerdagi ichki vaziyat haqida aniq va to’la ma’lumotga ega bo’lish maqsadida maxfiy xizmatchilarini yuborib turgan. Dushman to’g’risida zarur ma’lumotlarga ega bo’lgandan keyingina yurishga taraddud ko’rilgan”[1.13].

Amir Temur davri tarixi haqida asar yozgan tarixchilar Hofizi Abru va Sharofiddin Ali Yazdiy 1392-1396-yillardagi Amir Temurning qilgan harbiy yurishlariga “besh yillik urush” deb nom berishgan. Amir Temur 1392-yil 7-iyunda “besh yillik urush” nomini olgan harakatni boshlaydi. Bu urushdan ko’zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

1. Erondagi isyonkor hokimlarni qayta bo’ysindirish va o’z hokimiyatini mustahkamlash:
2. Gurjiston va Ozarbayjondagi mavqeini mustahkamlash:
3. Sulton Ahmat Jaloyir va Qora Yusuf turkmanlarning hukmronligiga chek qo’yish:
4. Misr mamluklarini o’ziga tobe qilish.

Shu vazifalarni bajarish, islomni mustahkamlash, karvon yo’llari xavfsizligini ta’minlash, zolim hukmdorlarini zulmiga jazolash shoiri ostida o’tkaziladi. “Amudaryodan o’tgan Amir Temur qo’shini birinchi bo’lib Mozandaron hududlariga kirib boradi. Kaspiy dengizining janubidagi Omul va Sori viloyatlarini zabt etadi”[2.55]. Sori hokimi Said Sayfiddin xotinlari bilan Xorazmga, o’g’illari Toshkentga, ba’zi yaqinlari esa Samarqandga jo’natiladi.

Amir Temur 1392-1393-yillarda Fors viloyatiga Muzaffariylar ustiga yurish boshlaydi. U yerda Shoh Mansur Shoh Shujoning vasiyatiga zid o’laroq zo’rluk bilan hokimyatni egallab olib, Sheroz qal’asini o’ziga maskan etgandi. Sheroz yaqinidagi urushda Shoh Mansur shiddat bilan jang qildi. Xatto bir gal qattiq hujumga o’tib, Amir Temur turgan joygacha bostirib boradi, ammo baribir mag’lubiyatdan qutila olmaydi va jangda halok bo’ladi. Uning davlati to’liqligicha Mironshohga beriladi. Tarixchi Nizomiddin Shomiy bu haqida shunday deb yozadi: “Muhammad Muzaffarning avlodi va nabiralari u mamlakatni egallab, har biri biron shahar va mavzeda o’z nomiga sikka urdirib (tanga zarb qildirib), hudba o’qitishgan, “Yaqin qarindoshlar bir-birlariga chayondekdurlar, bir-

birlarining qoni, nomusi, va mol-mulkiga tajovuz qilib kelayotgan edilar. Shu bois barcha raiyatlar doim turli hodisalar ostida ezilib, xo'rlik va ranju mashaqqat jabrini tortib, fuqoro holiga beqarorligu alg'ov-dalg'ovchilik yo'l topgan, mamlakat ishlari o'z tartibu intizomidan chiqib ketgan edi"[3.155]. Amir Temur bosib olingan hududda raiyat va xalqning gaplarini eshitgan. Bu hududlarni Umarshayxga suyurg'ol sifatida berilgan, u mutloq hokim deb tayinlangan. Sheroz lashkari ham unga bo'ysingan.

Amir Temur 1391-yilgi bo'lgan To'xtamishxon bilan bo'lgan jangda Sharafuddin Ali Yazdiyning aytishicha, "Temur o'z qo'shinlarini 7 favjga bo'lingan yangi harbiy tartibda joylashtirgan ekan. Bunda qo'shin ikki safda joylashib, rezervga ham ega bo'lgan. Birinchi safda chap qanot (shiqovul), asosiy korpus (avong'or) va o'ng qanot (chopovul)avong'orlari; ikkinchi safda-chap qanot (javong'or), asosiy korpus(avong'or) va o'ng qanot (barong'or); uchinchi safda – ar'ergrad (asosiy kuchlardan orqadagi qism) yoki rezerv (tarh) joylashgan ekan. Amir Temurning o'zi boshchilik qilgan, eng saralangan va jasur jangchilardan tashkil topgan rezerv (tarh) yuqoridagi ikki safga yordam berish uchun tuzilgan edi"[4.175].

Sharofiddin Ali Yazdiy To'xtamishxon qo'shinlarining joylashishi haqida to'liq ma'lumot keltirmagan. Faqatgina ular chap va o'ng qanot hamda asosiy ko'rpusdan tashkil topgani haqida aytib o'tgan.

Amir Temur To'xtamishxonni daf qilish uchun yurish qilgan vaqtda Isfaxon aholisi shahar dorug'asini o'ldiradi. Shu bilan bir paytda Sheroz aholisi ham isyon ko'tarib, Amir Temurga bo'ysinmay qo'yadi. Shu tufayli u 1392-1393-yillarda Sheroz va Iroqqa ikkinchi marta yurish qiladi va yana bir qancha joylarni zabt etadi. 1394-yilda To'xtamishxon yangi qo'shin to'plab, Darband va Shirvon orqali yana Dashti Qipchoqqa qo'shin tortadi. Gurjustonni esa Amir Temur umuman besh marta zabt etgan(1386-1387, 1392, 1394, 1399,1402-yillarda).

To'xtamish bilan urush tugagach, Amir Temur davlatini g'arbga qarab kengaytirish maqsadida 1392-yilda yangi yurishni boshlaydi. Uning qo'shinlari dastlab Samarqanddan-

Astrabotga, Xamaddonga, Sherozga, u yerdan Isfaxonga keyin esa Bog'dodga yurish qiladi. Bog'doddan esa Armaniston va Gurjistonga yurish qiladi.

Shunday qilib Amir Temur Oltin O'rdaning butkul kuchsizlanishiga, tanazzulga yuz tutishining asosiy sababchisi bo'ldi. Keyinchalik kurdlarga qarshi yurish qiladi. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, "Amir Temur avvallari karvonlarga hujum qiluvchi kurdlarni shu darajada bo'ysindirishga erishgan ediki, endi savdogarlar qimmatbaho mollarini hech qanday qo'riqchilarsiz olib o'tishlari mumkin edi"[5.178].

Xulosa qilib shuni aytganda Sohibqiron Amir Temurning besh yillik urushlari asosan g'arb davlatlari tomon amalga oshirilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa islom dinini yoyish, o'z davlatini mustahkamligini ta'minlash, markazlashgan imperiya yaratish kabi masalalar turgan. Amir Temur qaysi o'lkaga yurish qilmasin avval joylashgan hududini, aholisini, aholining xonga bo'lgan munosabatini, qo'shin sonini o'rgangan. Aynan To'xtamish bilan bo'lgan jangda ham Amir Temurnin qo'shini yetti favjga bo'linib, dushman askarlarini sarosimaga solib qo'ygan. Umuman olganda Amir Temur har bir jang uchun alohida taktika o'ylab chiqqan va uni amalda qo'llagan. Shu bilan Amir Temurning besh yillik urushlari uning butun Markaziy Osiyo va undan tashqaridagi xalqlarga o'z ta'sirini kuchaytirgan. Uni tarixda eng yirik imperiyalardan birini qurishga muvaffaq shaxsga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov M. Harbiy san'at tarixi. "Iste'dod ziyo pres". – Namangan. 2023. –B. 13.
2. Amir Temur jahon tarixida. "O'zbekiston", –Parij. –Toshkent. 1996. –B. 55.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Fors tilidan Y.Hakimjonov tarjimasi. "O'zbekiston" – Toshkent. 1996. –B. 149-155.
4. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda. Akmaljon Maxkamov tarjimasi. "Fan", –Toshkent. 1994. –B. 175.
5. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda. Akmaljon Maxkamov tarjimasi. "Fan", –Toshkent. 1994. –B. 178.